

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

1. Yuldasheva Shaxnoza Akramjon qizi

2. Po'latova Odinaxon Xusniddin qizi

1. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti kafedrasasi assistenti

Email: yuldashevashaxnoza45@gmail.com 99-463-14-92

2. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti Turizm ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7778354>

Annotatsiya. Qishloq xo'jaligi iqtisodiy samaradorligini oshirish, eng avvalo, mamlakat oziq-ovqat strategiyasi yo'nalishlari talablarini bajarish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, boshqa tomondan, bu maqsadga paxtachilik tarmog'iga kiruvchi korxonalarning mavjud mehnat, yer, suv, moddiy va moliyaviy resurslaridan, mulk shakllaridan qat'iy nazar, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish asosida, oqilona foydalanish evaziga erishiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, rentabellik, asosiy ko'rsatkichlar, tizim, foyda, moddiy xarajat, daromad, ekin maydoni, yalpi mahsulot, xosildorlik, sof foyda, paxta tolasi, moliyaviy mablag'lar.

Hozirgi davrning asosiy talablaridan biri qishloq xo'jaligida, jumladan, paxtachilikda xom ashyo ishlab chiqarishgina emas, balki uni qayta ishlash va sotishni to'g'ri va samarali amalga oshirishdan iboratdir. Chunki yaratiladigan qo'shimcha qiymatning, ya'ni daromadning asosiy qismi aynan keyingi sohalarda tashkil topmoqda. Respublikamizda avvaldan paxtachilik asosiy mahsulotlarining samaradorligini oshirish omillaridan to'laroq foydalanish masalalari paxta xom ashyosi, paxta tolasi, paxta yog'i, gazlama va boshqa paxtachilik mahsulotlari bo'yicha alohida-alohida hal etib kelingan. Lekin, 2017 yildan boshlab paxta-to'qimachilik klasterini shakllanishi yerni shudgorlashdan tortib, ekish, parvarishlash va xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayondagi ko'p bosqichli kompleks tizim samaradorligini oshirish masalalarini hal qilishni kun tartibiga qo'ymoqda.

Hozirgi davrgacha iqtisodiy samaradorlikni baholashning uslubiyoti haqida tadqiqot olib borgan olimlarning bu sohadagi fikr va mulohazalaridan kelib chiqib, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi olimlar iqtisodiy samaradorlikni mezon ko'rsatkichi yagona bo'lishi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikri bo'yicha ushbu ko'rsatkich umumiy o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'zida iqtisodiy samaradorlikni ob'ektiv va to'la to'kis aks ettirishi lozim. Ikkinchi guruh iqtisodchi olimlar iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanishi lozimligini ilgari suradilar.

SHu jihatdan paxtachilikni rivojlantirish masalalarini tadqiq etishda bu sohadagi muammolarni o'rganish davri va xo'jalik yuritish shakllaridan kelib chiqib har bir iqtisodchi olimlar o'zlarining ilmiy asoslangan fikr va mulohazalarini ilgari surganlar.

R.V.Abdullaev paxtachilikni rivojlantirish masalalari yuzasidan "paxta yetishtirish rivoji asosan ikkita omilga ya'ni, hosildorlikni oshirish va paxta maydonlarini kengaytirishga bog'liq bo'ladi. Hosildorlik darajasi muayyan bir davlat tabiiy-iqlim sharoiti, paxtachilikni mexanizatsiyalashganlik darajasi, ilm-fan yutuqlarini qay darajada ishlab chiqarishga tadbir etilgani va boshqa intensiv omillarga bog'liq" degan mulohazani bildirgan. Bu fikrdan shunday

xulosa qilish mumkinki, paxtachilikni rivojlantirish va mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga erishish bozor munosabatlariga o'tish sharoitida asosan intensiv omillar asosida amalga oshirilsada, bu jarayon ekstensiv omillar uyg'unligi ta'siri natijasida ro'y beradi.

Q. Xasanjanov va A. Toshmatovlar paxtachilikni rivojlantirishda tarmoqda intensiv texnologiyani qo'llashni ahamiyati va mohiyatini ilmiy jihatdan asoslar ekanlar "Ko'pincha intensiv texnologiyani mohiyatini mexanizatsiyalashtirish darajasini oshishi va shu asosda agrotexnik tadbirlarni bajarilish muddatlarini qisqartirish hisobiga g'o'zani o'sishi va rivojlanishini jadallashtirish deb talqin etadilar. Bunday bir tomonlama talqin ilmiy adabiyotlarda ham amaliyotda ham uchrab turibdi va shuning natijasida intensiv texnologiyaga har xil yondashishlar ro'y bermoqda" – deya ta'kidlaydilar. Paxtachilikda intensiv texnologiyaga muayyan paxta maydonidan kamroq mehnat va mablag' sarflab, eng ko'p va sifatli hosil etishtirishga qaratilgan o'zaro bog'liq bo'lgan texnologik hamda tashkiliy tadbirlar sifatida yondashilsa, yuqorida keltirilgan fikr ayni haqiqatdir. Chunki, intensiv texnologiyaga faqat mexanizatsiyalashtirish omili asosida qarash xato bo'ladi.

A. Abdiev "paxtachilik rivoji paxta xomashyosini tayyor mahsulot holiga keltiruvchi tarmoqlarni bosqichma-bosqich shakllantirish asosida paxta xomashyosi ishlab chiqarishda band bo'lganlar sonini qisqartirish masalalari bilan bog'liq" degan fikrni ilgari surgan. Mazkur fikrning asosi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida paxta xomashyosini tayyor mahsulot holiga keltiruvchi sub'ektlarni shakllantirish va ularni ishchi kuchi bilan ta'minlash jarayonida agrar sohada band bo'lgan ishlovchilarni bosqichma-bosqich sanoat korxonalariga jalb etish bilan bog'liq bo'lsada, bu masalaga ilmiy jihatdan yondoshilsa paxtachilikda ishlovchilar sonini qisqartirilishiga tarmoq rivojiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki, paxtachilik sermehnat tarmoq hisoblanib, ayni paytda ishlovchilar sonini qisqarishi paxta yetishtirishdagi agrotexnologik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazilishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Shu asosda, bu qisqa muddatli dasturlar vositasida amalga oshiriluvchi tadbir emas, balki, evolyutsion jarayon hisoblanib, tarmoqda xususiy mulkchilikning shakllanishi asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

A. Burxonov "Paxtachilikning rivoji bevosita paxta urug'chiligini rivojlantirish masalalariga bog'liq"ligini ta'kidlagan. Tarmoqni rivojlantirishda barcha omillar qatori mazkur masalaga ilmiy jihatdan yondashish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Chunki, paxta yetishtiruvchilar tabiiy-iqlim sharoitiga mos keluvchi tezpishar, serhosil navlarning sifatli urug'larini ekish paxta yetishtirish rivojiga ta'sir etuvchi omillar samaradorligining birlamchi asosi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan paxtachilik kompleksini rivojlantirish xomashyo ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga kuchli turtki beradi. Bu rivojlangan davlatlar tajribasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, paxtachilik kompleksini rivojlantirishni rag'batlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish mamlakatimizning milliy iqtisodiy manfaatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Paxtachilik kompleksini rivojlantirishga ko'maklashish xalq xo'jaligining boshqa tarkibiy komplekslarini rivojlantirishning asosiga aylanishi mumkin. O'ylaymizki, qo'shilgan qiymat zanjiri bo'yicha paxta sanoatining kelajakdagi rivojlanishi va raqobatbardoshligining oshishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan modelni ifodalaydi.

Paxtachilik majmuasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim o‘rin tutadi va u muvaffaqiyatli rivojlanishiga ta’siri jihatidan ustunlik qiluvchi mamlakat iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Zavodlarda qayta ishlangan paxta mahsulotlari yengil va oziq-ovqat sanoati uchun juda muhim xom ashyo hisoblanadi. Paxtadan olingan mahsulotlar og‘ir sanoatda ham ishlatiladi. Paxta xomashyosidan 300 xilgacha iste’mol mahsulotlari va texnikabop mahsulotlar tayyorlanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida paxtachilik va paxta tozalash sanoatining salmog‘i katta. Soha qanchalik rivojlansa xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari ham rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan ham paxtachilikni yanada rivojlantirish respublikamizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, mamlakatimiz azaldan o‘zining iqlimi, senmiun tuprog‘i, yer osti va yer usti boyliklari bilan mashhur bo‘lib kelgan. Hozirda mamlakatimizda har yili 3,0-3,2 million tonna paxta xomashyosi yetishtirilmoqda Bunday muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili hukumatimiz tomonidan sohaga berilayotgan doimiy e’tibor va ayniqsa, iqtisodiy imtiyozlar, fan va texnika yutuqlari hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, fermerlik harakatiga katta yo‘l ochilishi hisoblanadi. Bosqichma-bosqich olib borilayotgan islohotlar tufayli fermer xo‘jaliklarining moddiy texnika bazasi yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda.

References:

1. Murtazaev O. Paxtachilik agrosanoat majmuasi samaradorligini oshirish muammolari. T.: Fan, 2005.
2. Farmonov T.X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. — T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Husanov R.H. Paxta xom ashyosini yetishtirishda yangi texnologiyaning asosiy mohiyati. — T.: Mehnat, -1993
4. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. — T.: //TDIU, 2004
5. Murtazaev O. Paxtachilik majmuasi samaradorligining metodologik masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati. T.: O‘zBIITI, 2009.
6. www.agro.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari.
7. Sh.A.Yuldasheva “Paxtachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari” (Izboskan tumanidagi “Soxib omad barakasi” MCHJ agroklasteri misolida) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan Dissertatsiya- 2022